

QARAMA-QARSHI SONLAR

Samarqand viloyati Payariq tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 58-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Maxammatov Furqat

I. Sinf: 6-sinf

II. Darsdan maqsad.

a) ta'limiy: ***O'quvchilarga qarama-qarshi sonlar haqida tushuncha berish***

b) tarbiyaviy maqsad: ***O'quvchilarda matematika faniga bo'lgan qiziqishni o'stirish, hayotga bog'lqsh.***

v) rivojlantiruvchi maqsad: ***O'quvchilarning qarama-qarshi sonlarga doir bilimlarini rivojlantirish.***

III. O'quvchilar ega bo'lishlari lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar

Bilimlar: ko'phadni ko'paytuvchilarga ajratishning guruhlash usuli.

Ko'nikmalar: ko'phadni guruhlash usuli yordamida ko'paytuvchilarga ajrata olish;

bunga doir mashqlarni bajara olish.

IV. Dars turi: noan'anaviy

V. Dars jihozi: Darslik, ko'rgazmali quollar, didaktik materiallar, kompyuter

VI. Tashkiliy qism:

a. ***salomlashish va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.***

b. ***uyga berilgan vazifani so'rash.***

c. ***rag'batlantirish.***

VII. O`tilgan mavzuga yakun yasash:

O`quvchilarga savollar berish orqali eski mavzuga yakun yasaladi;

1-savol: Masshtab nima?

2-savol: Xaritadagi o`cham va masshtab berilsa, haqiqiy o`lcham qanday topiladi ?

3-savol: Haqiqiy o`cham va masshtab berilsa, xaritadagi o`lcham qanday topiladi ?

4-savol: Koordinata to`g`ri chizig`I qanday yasaladi ?

5-savol: Manfiy va musbat sonlar koordinata to`g`ri chizig`iga nisbatan qanday joylashadi ?

VIII. Yangi mavzuning bayoni:

Mavzu: Qarama-qarshi sonlar.

O`qituvchi: Aziz bolalar ! Biz hozir samolyotga minib Afrika davlatiga sayoxat uyushtiramiz. Ana shu joyda biz matematika darsini o`tamiz. Belgilangan manzilga yetmasdan samolyot yoqilg`isi tugab qoldi va biz majbur bo`ldik Afrika davlatining odam qadami yetmagan o`rmoniga qo`nishga. Baxtga qarshi shoshganimizdan o`zimiz bilan birga na oziq-ovqat, na daftar kitobolmabmiz. Kech kirmasdan yegulik topish darkor. O`qituvchi oldiga ikkita o`quvchini chaqirib, vazifa beradi:1-o`quvchi kun chiqish tomonga qarab 100 qadam, 2-o`quvchi kun botish tomonga qarab 100 qadam yuradi va topgan yegulikni olib yana dastlabki joyga qaytib keladi.



Izoh: (ikki o`quvchi bir-biriga qarama-qarshi tomonga yo`nalishdi. Demak birinchi o`quvchiga ikkinchi o`quvchi qarama-qarshi bo`ladi. Huddi shuningdek sonlarning ham qarama-qarshisi bo`ladi: 100 ga -100, -67 ga 67, ...)

Ming afsuski ikkala o'quvchi ham yegulixsis qaytishadi. Su payt bizni kuzatib turgan mahalliy qabila boshlig'I paydo bo'ldi va bizga yegulik keltirganini aytadi. Yegulikni bizga berishdan oldin bitta shart qo'yadi: mening qopimda qirg'ovul va quyonlar bor. Ularning boshlari 30 ta, oyoqlari 84 ta. Agar siz qopda nechta quyon va nechta qirg'ovul borligini topsangiz yegulikni olasiz, aks holda men bu yeguliklarni olib ketaman.

O'quvchilar masalani yechishga kirishadi.

<i>Qirg'ovullar</i>		<i>Quyonlar</i>		<i>Javob</i>
<i>boshlar</i>	<i>oyoqlari</i>	<i>bosh lari</i>	<i>oyoqla ri</i>	
<i>15</i>	<i>30</i>	<i>15</i>	<i>60</i>	<i>Noto'g'ri</i>
<i>16</i>	<i>32</i>	<i>14</i>	<i>56</i>	<i>Noto'g'ri</i>
<i>17</i>	<i>34</i>	<i>13</i>	<i>52</i>	<i>Noto'g'ri</i>
<i>18</i>	<i>36</i>	<i>12</i>	<i>48</i>	<i>To'g'ri</i>

O'quvchilar o'zlari bilmagan holda qarqma-qarshi sonlar haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Endi mana shu sayoxatimizga asoslangan holda mavzuni sinf xonasida davom ettiramiz. O'qituvchi doskaga conlar o'qining maketini osib qo'yadi. 1-o'quvchini doskaga chaqirib, koordinata boshi 0 nuqtani qo'ydiradi. 2-o'quvchi 1, 3-o'quvchi -1 raqamini va..... joylashtiradi . Natijada conlar o'qi manfiy va musbat sonlar bilan to'ldiriladi.

Koordinata to'g'ri chizig'ida har bir songa faqat va faqat bitta qarama-qarshi son to'g'ri keladi

Ta'rifni mustahkamlash maqsadida o'quvchilar 2 guruxga bo'linishadi. 1-guruh oquvchilariga manfiy sonlar, 2-guruh o'quvchilariga manfiy sonlar tarqatiladi.

Vazifa quyidagicha: Birinchi guruhdan bitta a'zo o'z raqamini sonlar o'qiga joylashtiradi. Ikkinchi guruhdansu songa qarama-qarshi son egasi o'z raqamini

conlar o'qiga joylashtiradi va xakoza.... Musobaqa shu tariqa davom ettiriladi va o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VIII. Mavzuni mustahkamlash:

Mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdagi mashqlar bajariladi.

IX. Test topshirig'i bajariladi

X. Darsga yakun yasaladi

XI. O'quvchilar baholanadi

XII. Uyga vazifa topshiriladi: Maxsus mashqlar